

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI

O'quv-uslubiy boshqarma

№ 283

«03» 08 2024 y.

PUL VA BANKLAR
FANING ISHCHI O'QUV DASTURI



(SILLABUS)

(sirtqi, ikkinchi ta'lim uchun)

- Bilim sohalari:** 300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
- Ta'lim sohalari:** 310 000 - Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
- Ta'lim yo'nalishlari:** 60310100 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Namangan - 2024 yil

Fan/modul' kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
PB15(6)09	2024-2025	5, 6	5, 4
Fan/modul' turi	Ta'lim turi		Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O'zbek		5, 4
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Pul va banklar	5-semestr (8m/12a) 6-semestr (8m/8a)	5-semestr 130 6-semestr 104	5-semestr 150 6-semestr 120

1. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga pulning zarurligi, mohiyati, pul nazariyalari va pul aylanmasi, kredit va kredit munosabatlari, banklar va bank tizimi, valyutalarning xalqaro miqyosdagi harakatini tashkil qilish bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, pulning kelib chiqishi va zarurligi, pulning mohiyati va pul muomalasi qonunlari, pul aylanmasi va pul tizimi, kreditning mohiyati va printsiplari, kreditning shakllari va turlari, bank tizimi va uning tarkibi, tijorat banklari operatsiyalari, nobank moliya kredit institutlari faoliyati, xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish va tartibga solish asoslari xususidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. "Pul va banklar" faniga kirish *

Pul va banklar fanining maqsadi, predmeti va vazifalari. Boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Pul. Iqtisodiy taraqqiyotda pulning roli. Pul va uning barqarorligi. Pul va inflyatsiya. Pul va kredit. Banklar va boshqa moliya institutlari

2-mavzu. Pulning paydo bo'lishi, zarurligi va funksiyalari

Pul, uning kelib chiqishi va zarurligi. Qiymat shakllarining evolyusiyasi. Qiymatning oddiy yoki tasodifiy shakli. Qiymatning to'liq yoki kengaytirilgan shakli. Qiymatning umumiy shakli. Qiymatning pul shakli. Oltin pul sifatida. Pulning mohiyati. Pulning o'ziga xos xususiyatlari. Pul umumiy ekvivalent sifatida. Pul shakllari va turlarining evolyusiyasi. To'laqonli yoki haqqoniy pullar: ularning turlari va evolyusiyasi. Kredit pullari va ularning turlari: vektsel, banknota va chek. Qog'oz pullarning paydo bo'lishi va evolyusiyasi. Elektron pullar. Tovar pullar. Pulning funksiyalari: qiymat o'lchovi funksiyasi; muomala vositasi funksiyasi; to'lov vositasi funksiyasi; jamg'arish vositasi funksiyasi;

jahon puli funksiyasi. Pulning funksiyalari bo'yicha Evropa va Amerika maktablari tarafdorlari qarashlari: almashuv vositasi funksiyasi, hisob birligi funksiyasi, jamg'arish vositasi funksiyasi.

3-mavzu. Pul nazariyalari tarixi*

Pulning metallik nazariyasining yuzaga kelish shart-sharoitlari. Pulning metallik nazariyasining asoschilari va namoyondalari: U.Stefford, T.Men, D.Nors, J.Chayld, A.Monkreten, J.Kolber, I.YUsti, G.Skaruffi, F.Galiani. Ilk merkantilistlar va ularning nazariy qarashlari. Faol "pul balansi" tushunchasi. So'nggi merkantilistlar va ularning nazariy qarashlari. "Umumiy savdo balansi" tushunchasi. XIX va XX asrlarda pulning metallik nazariyasini rivojlantirishga bo'lgan urinishlar.

4-mavzu. Pul nazariyalari rivojlanishi va mazmuni *

Pulning metallik nazariyasiga nisbatan tarixiy qarashlar. Pulning nominallik nazariyasining yuzaga kelish shart-sharoitlari va asosiy qoidalari. Pulning nominallik nazariyasining asoschilari va namoyondalari: J.Berkli, G.Knapp, F.Bendiktsen. Pulning nominallik nazariyasini XX asrda rivojlantirishi. Pulning miqdoriylik nazariyasi. Pulning aylanish tezligi va almashuv tenglamasi. Pulning miqdoriylik nazariyasida pullarga bo'lgan talab talqini. J.M.Keynsning "ikvidililikni afzal ko'rish" nazariyasi. Pullarga bo'lgan talab omillari: tranzaksiyon omil, ehtiyotkorlik omili, spekulyativ omil. J.M.Keyns nazariyasini rivojlantirishi. M.Fridmenning zamonaviy miqdoriylik nazariyasi. M.Fridmen va J.M.Keyns nazariyalari o'rtasidagi farqlar.

5-mavzu. Pul aylanmasi tushunchasi va mazmuni*

Pul aylanmasi tushunchasining mazmuni. To'lov aylanmasi va uning tarkibi. Pullarning naqd pulsiz aylanmadagi harakat yo'nalishlari. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish tamoyillari. Naqd pulsiz hisob-kitob shakllari. Naqd pulsiz hisob-kitoblarning afzalliklari. Pullarning naqd aylanmadagi harakat yo'nalishlari.

6-mavzu. Pul aylanmasi tarkibi*

Pul aylanmasining tarkibi: tovarsiz pul aylanmasi; pullarning tovarlar bilan bog'liq aylanmasi; naqdsiz pul aylanmasi; naqd pul aylanmasi; bir shahar ichidagi aylanma; shaharlara aylanma. Naqd pul aylanmasi tushunchasining mazmuni. Naqd pul aylanmasining zarurligi. Naqd pullarni muomalaga chiqarish va muomaladan olish tartibi.

7-mavzu. Pul massasi va pul agregatlari

Pul massasi, uning mohiyati va tarkibi. Pul massasini miqdoriy o'lchash. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlash. Pulning aylanish tezligi. Pul multiplikatori. Monetatsiya koeffitsienti. Pul agregatlari va ularning tarkibi. Federal rezerv tizimining pul agregatlari. Evropa davlatlarida pul agregatlari. Rossiya Federatsiyasida pul agregatlari. O'zbekiston Respublikasida pul agregatlari va ularning tarkibi.

8-mavzu. Pul tizimi mazmuni*

Pul tizimi va uning mazmuni. Pul tizimi shakllari va ularning evolyusiyasi: bimetalizm, monometallizm. Oltiniga almashtirilmagan kredit pullar tizimi.

9-mavzu Pul tizimi: turlari va elementlari

Pul tizimi elementlari. Ba'zi xorijiy davlatlar pul tizimining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi barqarorligini ta'minlash yo'llari.

10-mavzu. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi*

O'zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning rivojlanishi. Milliy pul tizimi elementlarining shakllanishi. Milliy valyuta. Milliy valyuta summing muomalaga kiritilishi.

11-mavzu. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari*

O'zbekiston Respublikasi pul tizimining sub'ektlari va ularning vazifalari. Milliy valyuta kursi va unga ta'sir etuvchi omillar. Pul tizimi barqarorligini ta'minlash yo'llari.

12-mavzu. Inflyasiya va unga qarshi kurashish yo'llari*

Inflyasiya tushunchasining mazmuni. Inflyasiyani yuzaga keltiruvchi sabablar. Inflyasiyaning turlari: talab inflyasiyasi; taklif inflyasiyasi; yashirin inflyasiya; sudraluvchi inflyasiya; shiddatli inflyasiya; giperinflyasiya; lokal inflyasiya; global inflyasiya. Inflyasiya manbalari. Inflyasiya va ishsizlik. Inflyasiya va davlat byudjeti. Inflyasiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Inflyasiyaning makroiqtisodiy O'SISH sur'atlariga ta'siri. Inflyasiyaning investitsion jarayonlarga ta'siri. Inflyasiyaning aholi turmush darajasiga ta'siri. Inflyasiyaga qarshi kurashish yo'llari. Pul massasini O'SISH sur'atlarini nazorat qilish.

13-mavzu. Pul islohotlari*

Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligi. Pul islohotlarini amalga oshirish shart-sharoitlari. Pul islohotlari turlari va ularni amalga oshirish usullari. Denominatsiya va uni amalga oshirish tartibi. Nullifikatsiya va uni amalga oshirish tartibi. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan pul islohotlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

14-mavzu. Kreditning zarurligi va funksiyalari

Kredit va uning mazmuni. Kreditning zarurligi. Fondlar aylanishi va kreditning zarurligi. Kredit munosabatlari va ularning turlari. Kreditning tamoyillari. Kreditning ob'ektlari va sub'ektlari. Kreditning funksiyalari.

15-mavzu. Kreditning turlari va shakllari*

Kredit qonunlari. Kreditning turlari. Kreditning shakllari. Kreditlashning

me'yoriy-huquqiy asoslari. Tarmoqlarni kreditlashning xususiyatlari. Iqtisodiyotda kreditning roli.

16-mavzu. Kredit bo'yicha foiz stavkalar va ularga ta'sir qiluvchi omillar*

Kreditning to'lovlilik tamoyili. Foiz stavkalar va ularni o'lchash. Kreditning bahosi tushunchasi. Nominal foiz stavkasi. Real foiz stavkasi. Oddiy foizlar. Murakkab foizlar. Kredit bozori va uning instrumentlari. Pul taklifi. Fisher effekti. Foiz stavkalari bo'yicha nazariyalar. Kredit foiziga ta'sir qiluvchi omillar.

17-mavzu. Banklarning kelib chiqishi*

Bank, banklarning paydo bo'lishi, maqsadi va vazifalari. Dastlabki banklarning paydo bo'lishi va ularning operatsiyalari. Italiyada banklarning valyuta almashirish operatsiyalarini amalga oshirish zaruriyati tufayli yuzaga kelishi. Qadimgi Gretsiyada bank ishi. Qadimgi Rimda bank ishi. O'rta er dengizi havzasidagi Evropa mamlakatlarida XIV-XV asrlarda bank ishi. XVII-XVIII asrlarda Evropada bank ishi. AQSH bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Emission banklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. AQSH federal zaxira tizimining tashkil etilishi. SHvetsiya Rikts bankining tashkil etilishi. Angliya Markaziy bankining yuzaga kelishi. Yaponiya Markaziy bankining tashkil etilishi. Evropa Markaziy bankining yuzaga kelishi. Tijorat banklarning paydo bo'lishi va rivojlanishi. Banklarning funksiyalari.

18-mavzu. Bank tizimi

Banklarning operatsiyalari. Bank tizimi va uning turlari. Kredit tizimi va uning tarkibi. Evropa davlatlari, AQSH, Yaponiya va boshqa davlatlar bank tizimi va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Banklarning turlari. Moliyaviy innovatsiyalar va bank industriyasini rivojlanishi. Zamonaviy bank tizimlari.

19-mavzu. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi*

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning shakllanishi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va banklar faoliyatining huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining rivojlanish bosqichlari. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining tarkibi.

20-mavzu. Markaziy bank*

Markaziy bankning yuridik shaxs sifatidagi maqomi va funksiyalari. Markaziy bankning tashkiliy va funksional tarkibi. Markaziy bankning boshqaruv tizimi. AQSH federal zaxira tizimining boshqaruv organlari: boshqaruvchilar kengashi, ochiq bozordagi operatsiyalar bo'yicha federal qo'mita. Markaziy bankning operatsiyalari. Evropa Markaziy bankining boshqaruv organlari va ularning vakolatlari. Yaponiya Markaziy bankining boshqaruv organlari va ularning vakolatlari.

21-mavzu. Markaziy bank funksiyalari*

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki maqsadi, vazifalari, funksiyalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining operatsiyalari. Markaziy bankning banklarning banki sifatidagi faoliyati.

22-mavzu. Markaziy bankning mustaqilligi*

Markaziy bankning iqtisodiy mustaqilligi va uni belgilovchi mezonlar. Markaziy bankning mustaqilligi va uni belgilovchi mezonlar. O'tish iqtisodiyotida markaziy banklar. Xorijiy davlatlarda markaziy bankning mustaqilligini belgilovchi indekslar. Ular qiyosiy tavsif. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining mustaqilligi.

23-mavzu. Tijorat banklari*

Tijorat banklari faoliyatini tashkil qilish asoslari va ularning funksiyalari. Tijorat banklarining turlari. Ulgurji banklar. CHakana banklar. Aralash banklar. Universal tijorat banklari. Investitsion banklar.

24-mavzu. Tijorat banklari funksiyalari*

Ixtisoslashgan tijorat banklari va ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari. Tijorat banklarining tashkiliy va funktsional tuzilishi. Banklar konsolidatsiyasi va umummilliy banklar.

25-mavzu. Tijorat banklarining operatsiyalari*

Tijorat banklarining passiv operatsiyalari. Tijorat banklarining aktiv operatsiyalari. Tijorat banklarining aktiv-passiv operatsiyalari. Tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari. Tijorat banklarining kredit operatsiyalari va uning milliy iqtisodiyotga ta'siri. Tijorat banklarining aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish borasidagi faoliyati.

26-mavzu. Nobank moliya-kredit muassasalari

Nobank moliya-kredit muassasalarining zarurligi. Nobank moliya-kredit muassasalarining aktiv va passiv operatsiyalari. Kredit uyushmalari. Lombardlar, ssuda-jam'arma assotsiatsiyalari. O'zaro jam'arma banklari. Mikromoliyaviy tashkilotlar, sug'urta kompaniyalari, pensiya fondlari, moliya kompaniyalari. O'zaro fondlar. Xorijiy davlatlarda nobank moliya-kredit tashkilotlari faoliyatining xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasida nobank kredit tashkilotlari ular faoliyatining huquqiy-iqtisodiy asoslari.

27-mavzu. Bank inqirozlari*

Bank inqirozi tushunchasi. Bank inqirozini belgilovchi mezonlar. AQSHda yuz bergan bank inqirozlari. Skandinaviya davlatlarida, Lotin Amerikasida, Rossiya va SHarqiy Evropa, Yaponiya va SHarqiy Osiyo mamlakatlarida yuz bergan bank inqirozlari.

28-mavzu. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati*

Pulning xalqaro munosabatlardagi harakatini yuzaga keltiruvchi omillar. Erkin ishlatiladigan valyutalar. Xalqaro rezerv valyutalar. Qattiq valyutalar. YUmshoq valyutalar. Xalqaro valyuta bozori. Valyuta kurslari. Valyuta kursiga ta'sir qiluvchi omillar. Valyuta kursi rejimlari. Savdo balansi, to'lov balansi va ularning holati.

29-mavzu. Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi*

Xalqaro moliya institutlari va ularning vujudga kelishi. Osiyo taraqqiyot banki, uning maqsadi va funksiyalari. Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, uning maqsadi va funksiyalari. Islom taraqqiyot banki, uning maqsadi va funksiyalari.

30-mavzu. Xalqaro moliya institutlari funksiyalari*

Xalqaro valyuta fondi, uning maqsadi va funksiyalari. Jahon banki, uning maqsadi va funksiyalari. Osiyo infratuzilmalarni investitsiyalash banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi va ularning maqsadi va funksiyalari.

"Pul va banklar" fanidan ma'ruza mashg'ulotlarining mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

No	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
5-semestr uchun		
1	Pulning paydo bo'lishi, zarurligi va funksiyalari	2
2	Pul massasi va pul agregatlari	2
3	Pul tizimi: turlari va elementlari	2
4	Kreditning zarurligi va funksiyalari	2
	JAMI	8
6-semestr uchun		
1	Bank tizimi	2
2	Tijorat banklari	2
3	Nobank moliya-kredit muassasalari	2
4	Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi	2
	JAMI	8
	HAMMASI	16

*Izoh: Yuqorida yulduzcha (*bilan) belgilab qo'yilgan mavzularni talaba faning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.*

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilindi:

- amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:

Amaliy mashg'ulotlar uchun qo'yidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Pul va banklar" faniga kirish*
2. Pulning paydo bo'lishi, zarurligi va funksiyalari
3. Pul nazariyalari tarixi*
4. Pul nazariyalari rivojlanishi va mazmuni *
5. Pul aylanmasi tushunchasi va mazmuni*
6. Pul aylanmasi tarkibi*
7. Pul massasi va pul agregatlari
8. Pul tizimi mazmuni*
9. Pul tizimi: turlari va elementlari
10. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi*
11. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi elementlari*
12. Inflyatsiya va unga qarshi kurashish yo'llari*
13. Pul islohotlari*
14. Kreditning zarurligi va funksiyalari
15. Kreditning turlari va shakllari*
16. Kredit bo'yicha foiz stavkalar va ularga ta'sir qiluvchi omillar*
17. Banklarning kelib chiqishi*
18. Bank tizimi*
19. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi*
20. Markaziy bank*
21. Markaziy bank funksiyalari*
22. Markaziy bankning mustaqilligi*
23. Tijorat banklari*
24. Tijorat banklari funksiyalari*
25. Tijorat banklarining operatsiyalari*
26. Nobank moliya-kredit muassasalari
27. Bank inqirozlari*

28. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati*
29. Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi
30. Xalqaro moliya institutlari funksiyalari*

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihatlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalardan qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

"Pul va banklar" fanidan amaliy mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

N ^o	Mavzuning nomi	Ajratilgan soat
5-semestr uchun		
1	Pulning paydo bo'lishi, zarurligi va funksiyalari	2
2	Pul nazariyalari rivojlanishi va mazmuni	2
3	Pul massasi va pul agregatlari	2
4	Pul tizimi: turlari va elementlari	2
5	Inflyatsiya va unga qarshi kurashish yo'llari	2
6	Kreditning zarurligi va funksiyalari	2
	JAMI	12
6-semestr uchun		
1	Bank tizimi	2
2	Tijorat banklari funksiyalari	2
3	Nobank moliya-kredit muassasalari	2
4	Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi	2
	JAMI	8
	HAMMASI	20

Izoh: Yuqorida yulduzcha (*) bilan belgilab qo'yilgan mavzularni talaba fanning mohiyatini to'liq tushunishi uchun, mustaqil ravishda o'zlashtirilishi shart.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzular:

1. Aholi pul jamg'armalarining turlari, ularni banklarga jalb qilish va foydalanish.
2. Aholi farovonligini oshirishda tijorat banklarining roli
3. Markaziy bankning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi
4. Banklararo vakillik munosabatlari: mazmuni, zarurligi va o'rnatish tartibi.

<p>5. Valyuta birjasi va uning faoliyat yo'nalishlari</p> <p>6. Davlat krediti va uning kredit munosabatlaridagi roli</p> <p>7. Depozitlar va ularning salmog'ini kengaytirish istiqbollari</p> <p>8. Evropa investitsiya banki va uning operatsiyalari</p> <p>9. Jahon banki, uning vazifalari va funksiyalari.</p> <p>10. Jahon valyuta tizimi va uning elementlari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>Nazorat topshiriqlari uchun tavsiya etiladigan mavzular va ularni bajarish uchun qo'yiladigan talablar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Transmilliy banklar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari 2. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarini bartaraf etishda Jahon banki guruhining roli. 3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalar va ularning rivojlanish istiqbollari <p>Nazorat topshiriqlari talabalarga semestrmng boshlanish haftasida professor o'qituvchilar tomonidan taqdim etiladi va talabalar berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yuqorida keltirib o'tilgan ko'rsatmalar asosida kafedra tomonidan tuzilgan komissiya a'zolariga (tasdiqlangan grafik bo'yicha) yakuniy nazorat topshirish kuniga qadar amalga oshiriladi.</p> <p>Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar</p> <p>Fan bo'yicha kurs ishlari o'quv rejada nazarda tutilmagan.</p>	<p>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - turli mulkchilik shaklida iqtisodiyot sub'ektlarini to'g'ri boshqarishda tahlilning rolini, iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari (printsip)larni, iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalarini, fanlar tarkibida iqtisodiy tahlilning o'rini, iqtisodiy tahlil qilishning usullarini, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida iqtisodiy tahlil ishlarni tashkil qilishni, iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarini, kompleks iqtisodiy tahlilni mazmuni va asosiy tamoyillarini, xo'jalik faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilish usullarini, avtomatik boshqarish sistemasida kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil qilishni shakl va usullarini bilishi kerak; - tahlil jarayonida kerak bo'ladigan manbalar hajmini aniqlash, to'plash, ularni to'g'riligini tekshirish, qayta ishlash va tahlilga moslashtirish, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish, tahlil natijasiga xulosa va yakun yasash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari yakuniga baho berish, korxonada iqtisodiy salohiyatini baholash, elektron hisoblash mashinalari (kompyuter vositalari)ning tahlil jarayonida qo'llash malakalariga ega bo'lishi kerak.
--	---

<p>4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqola yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish; • jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni echish; • so'rov o'tkazish. 	<p>5. VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:</p> <p>Fandan talabalarni bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test nazoratini topshirish.</p> <p>Diqqat: Topshiriqlar va nazorat ishlari dedlayn (qat'iy belgilangan vaqt) tarzida shakllantiriladi va talabalar tomonidan bajarish muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddat yakunlanganidan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor hisoblanadi.</p> <p>Talabalar bilimni baholash mezonlari</p> <p>Pul va banklar fanidan talabalarni baholashda, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlariga qatnashishi va unda olgan baholarini inobatga olinadi.</p> <p>1. Oraliq nazorati ma'ruza, amaliy mashg'ulotlaridagi mavzularni qamrab oladi. Talabaning nazorat topshiriqlarini topshirish jarayonida to'plagan bali oraliq nazorat bali hisoblanadi.</p> <p>OB=N.T(1,2,3) + A.M+MT(3tadan)/3</p> <p>Bu yerda: OB- oraliq baholash; N.T- nazorat topshiriqlari; A.M- amaliy mashg'ulotlar; MT- mustaqil ta'lim topshiriqlari.</p> <p>Oraliq baholash bandlarining har biri kamida 60%=3 baho holatda</p>
--	--

o'zlashtirilishi lozim. Agar nazorat ishini yoki biror bandning o'zlashtirilishi 60% dan kam bo'lsa ya'ni 3 bahodan kam bo'lsa, o'zlashtirilmagan hisoblanadi va yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

$OB \geq 60\% = 3$ baho.

Yakuniy nazorat tarkibi: auditoriya mavzularidan (50%) va mustaqil ta'lim mavzularidan (50%) yakuniy nazorat savollari tuziladi.

Yakuniy nazoratda kamida 60% ni o'zlashtirilishi shart. Agar 60%-3 dan kam bo'lsa yakuniy nazoratdan o'tmagan hisoblanadi.

$YaN \geq 60\% = 3$ baho.

Fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha topshiriqlar 2-5 baho oraliq'da baholanadi.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar bo'yicha berilgan topshiriqlarni bajarishdan o'rtacha 3,4,5 baho olgan talaba oraliq nazorat (ON)dan o'tgan hisoblanadi.

Yakuniy nazorat 2-5 baho oraliq'ida baholanadi. Yakuniy nazorat turi bo'yicha 3,4,5 baho olgan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi. Aks holda qoniqsiz baho (2 baho) olgan talaba akademik qarzdor sifatida qayta topshirishga qoldiriladi.

6. **Asosiy adabiyotlar**
1. Omonov A.A, Qoraliyev T.M "Pul va banklar" Darslik. T.: - "IQTISOD-MOLIYA", 2019 y
 2. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi. T.: «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2017.
 3. Laurence M. Ball. Money, Banking, and Financial Markets, Pearson Education Limited, 2016
 4. И.О.Лаурешин. Банковское дело. Учебник. 12-е изд., М: «КноРус», 2016, -800 стр.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 104 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini

<p>birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.</p> <p>5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-48 b.</p> <p>6. Красавина Л.Н. Международные валютно-кредитные отношения и финансовые отношения.–Москва: Финансы и статистика, 2016, –543 с.</p> <p>7. Международные валютно-кредитные отношения, Н.Н. Моксеевой.</p> <p>8. "Iqtisodiyot va talim" ilmiy jurnali, 2018-2019 barcha sonlari</p> <p>9. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnal, 2018-2019 barcha sonlari.</p> <p>10. M Gregory Mankiw, Mark P. Taylor. Economics, Cengage Learning EMEA, 2016,</p> <p>Internet saytlari:</p> <p>1. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari va ma'lumotlari milliy bazasi.</p> <p>2. www.norma.uz – Axborot – huquqiy portal</p> <p>3. www.tfi.uz – Toshkent moliya instituti rasmiy sayti</p> <p>4. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti</p> <p>5. www.finance.uz – Moliya – iqtisodiy tahlil portali.</p> <p>6. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti</p> <p>7. www.sciencedirect.com. – ommabop ilmiy jumallar sayti.</p> <p>8. www.reader.elsevier.com. – ommabop ilmiy jumallar sayti.</p> <p>9. www.scopus.com. – Xalqaro maqola va anjumanlar sayti</p>	<p>Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p>Fan/modul' uchun ma'sullar: E.S.Jurayev – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi, i.f.f.d., PhD.</p> <p>Taqrizchilar: I.Q.Sirojiddinov – NamMQI, "Iqtisodiyot" kafedrasida professori, i.f.n. R.A.Rashidov – NamMPTI, "Iqtisodiyot" kafedrasida mudiri, DSc., prof. v.b.</p>
--	--